



Linguocultural analysis of phraseological units in the works of Sadriddin Ayni

Guzal SAYFIDDINOVA¹

Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

ARTICLE INFO

Article history:

Received April 2025
Received in revised form
10 April 2025
Accepted 2 May 2025
Available online
25 June 2025

Keywords:

linguoculturology,
cultural elements,
phraseological unit,
linguistics,
literary text,
historical words,
archaic words,
semantics,
seme,
lexeme,
phraseology.

ABSTRACT

This article presents a linguocultural analysis of phraseological units in the works of Sadriddin Ayni. The cultural elements reflected in these phraseological units were analyzed in comparison with other phrases. Special attention was given to the significance of the phraseological units, their function in the literary works, and the contextual meaning of linguocultural elements in the text. Additionally, the current state of research in linguoculturology was briefly discussed. From the phraseological units in Ayni's works, only expressions containing cultural elements were selected and compared with other expressions featuring the same cultural unit.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss6/S-pp17-23>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Sadriddin Ayniyning asarlaridagi frazemalarining lingvokulturologik tahlili

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

lingvokulturologiya,
madaniy birliklar,
frazema, tilshunoslik,
badiiy matn,
tarixiy so'zlar,
eskirgan so'zlar,
semantika,
sema,
leksema,
frazeologiya.

Maqolada Sadriddin Ayniyning asarlaridagi frazemalarning lingvokulturologik tahlili berildi. Frazemalarda aks etgan madaniy birliklar boshqa frazemalar bilan taqqoslangan holatda tahlil qilindi. Frazemalarning ahamiyati va ularning asarda qanday vazifa bajarganligi, lingvokulturologik birliklarning matnda qaysi ma'noda ishlatilganiga alohida e'tibor qaratildi. Shuningdek, lingvokulturologiyaning bugungi kunda o'rganilish tadqiqiga ham to'xtalib o'tildi. Asarlaridagi frazemalardan faqatgina madaniy birliklar qatnashgan iboralar tanlab olingan va boshqa xuddi o'sha birlik qatnashgan boshqa iboralar bilan solishtirilgan.

¹ Student, Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature.

Лингвокультурологический анализ фразеологизмов в произведениях Садриддина Айни

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

лингвокультурология,
культурные единицы,
фразеологизм,
лингвистика,
художественный текст,
историзмы,
устаревшие слова,
семантика,
сема,
лексема,
фразеология.

В статье представлен лингвокультурологический анализ фразеологизмов в произведениях Садриддина Айни. Культурные единицы, отражённые во фразеологизмах, были проанализированы в сравнении с другими аналогичными выражениями. Особое внимание уделено значению фразеологизмов, их функции в произведении, а также смыслу лингвокультурологических единиц в тексте. Кроме того, затронут вопрос современного изучения лингвокультурологии. Для анализа были отобраны только те фразеологизмы, в которых присутствуют культурные компоненты, и они были сопоставлены с другими выражениями, содержащими те же элементы.

KIRISH

Bugungi kunda lingvokulturologiya alohida ahamiyat berib o'rganilayotgan soha sanaladi va u tilshunoslikdagi eng muhim bo'limi hisoblanadi. Lingvokulturologiya bu til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro aloqani o'rganuvchi sohadir. Bu fan orqali milliy madaniyat, mentalitet, an'analar, qarashlar qanday aks etishi o'rganiladi. Lingvokulturologiya nafaqat tilshunoslik, sotsiologiya va tarix bilan ham chabbarchas bog'liqdir. O'zbek tilida lingvokulturologiyaning vazifalari:

1. O'zbek xalqining madaniy merosini tilda qanday ifodalanganini o'rganish.
2. Tilda mavjud milliy tushunchalar, konseptlarni aniqlash va tahlil qilish.
3. Tarbiyaviy va didaktik ahamiyatga ega iboralarni o'rganish.
4. Tillararo madaniy tafovutlarni tushunishga ko'maklashish (masalan, tarjimada yoki xorijiy til o'qitishda).

Frazemalardagi birliklarni lingvokulturologik jihatdan tahlil qilinar ekan, bevosita lingvokulturologiya va frazeologiya bir biri bilan chambarchas bog'liq holda o'rganiladi. Frazeologiya tilshunoslikning lug'at tarkibidagi frazemalar haqida ma'lumot beradi. Frazemalar esa ko'chma ma'noli turg'un birikma bo'lib, ular tarkibidagi leksemalar lisonda yaxlitligicha saqlanadi. Shunday ekan, biz frazemalardagii leksemalarni lingvokulturologik jihatdan tadqiq qilishimiz mumkin. Nima uchun aynan ibora va shu kabi frazeologik birliklarga e'tibor qaratildi? Sababi ular millatning mentaliteti va madaniyati haqidagi ma'lumotlarning qimmatli manbaidir. Til va madaniyatning bog'liqligi, madaniyatning tilda aks etish muammosi bilan bog'liq masalalarning metodologik asosi yaqin yillardagina boshlandi. Ularning asosi sifatida V.V. Voroboyev, V.M. Shakleyin, V.N. Teliyaning ishlari xizmat qiladi [1, 2017:3]. Rus tilshunosi B.A. Larin: "Tongda yorug'lik shudring tomchilarida qanday aks etsa, iboralar xalq dunyo qarashi, ijtimoiy tuzum, o'z davri mafkurasini shunday aks ettiradi", – degan edi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Lingvokulturologiya V.N. Teliya rahbarligida Moskvada paydo bo'lgan. XXI asrning ilk yillarida o'zbek tilshunosligida ham bu yo'nalish taraqqiy etishni boshladi. S.M. Mo'minov, Sh. Safarov, M.X. Hakimov, Z.I. Saliyeva, R.S. Ibragimovalaning ishlari,

nomzodlik dissertatsiyalri bunga yaqqol misol bo'la oladi. Lingvokulturologiya deganda, avvalo, madaniyat tushunchasi nima ekanligini bilib olish lozim. Y.M. Lotman: "Madaniyat bu murakkab semiotik tizim, uning vazifasi– xotira, farqlovchi belgisi – jamlash" – deb ta'rif bergan. Nemis faylasufi O. Shpengler o'zining madaniyat borasidagi konsepsiyasini 1918-yilda nashr etilgan "Ovrupo inqirozi" kitobida shunday bayon etadi: "Har bir madaniyatning o'z sivilizatsiyasi bo'ladi, u esa, aslida, madaniyatning tugashi hamdir" [1, 2017:45]. B.A. Maslova ushbu soxaning rivojini 3 bosqichga ajratadi :

- 1) Fan shakllanishiga turtki bo'lgan dastlabki tadqiqotlarning yaratilishi
- 2) Lingvokulturologiyaning alohida soxa sifatida ajratilishi
- 3) Lingvokulturologiyaning rivojlanish bosqichi

Lingvokulturologiya tili va madaniyati o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan xalqning ruhiy dunyosini o'rganadi. Bu yo'nalishda til birliklarining madaniy konnotatsiyasi va semantik boyligi alohida e'tibor markazida turadi. O'zbek tilshunosligida lingvokulturologik tadqiqotlar, ayniqsa, frazeologizmlar, metaforalar va milliy-madaniy birliklar orqali olib borilmoqda. Lingvokulturologik tahlil orqali xalq tafakkuri, urf-odatlar va qadriyatlar til orqali qanday namoyon bo'lishi ochib beriladi. Milliy madaniyat va tarixiy an'analar tilda mustahkam aks etgani bois, lingvokulturologiya ularni ilmiy jihatdan o'rganish imkonini beradi. Bugungi kunda lingvokulturologik yondashuv til o'rgatishda ham muhim metodik asos sifatida qaralayapti. O'zbek tili materiallari asosida olib borilgan lingvokulturologik izlanishlar xorijiy tillarni o'rgatishda ham qo'llanilmoqda. Soha vakillari turli madaniy kodlar va ularning til vositasida qanday ifodalanishini tahlil qilishga alohida e'tibor qaratmoqdalar. Lingvokulturologiyaning rivojlanishi natijasida ko'p tilli va ko'p madaniyatli jamiyatlarda kommunikativ kompetensiyani oshirish mumkin. Kelajakda bu yo'nalish til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni yanada chuqurroq o'rganishga xizmat qilishi shubhasiz.

TAHLIL, NATIJALAR VA METODLAR

Sadriddin Ayniyning asarlarida bir qancha frazemalar qo'llangan, ammo hammasida ham madaniy birliklar qo'llangan deya olmaymiz. Nega deganda, hamma leksema ham madaniy birlik bo'la olmaydi. Leksemalarning lingvokulturologik komponent bo'lishi uchun o'zining bir nechta talabi bor. Masalan quyidagilar:

1) Madaniy ma'lumot yoki qadriyatni ifodalashi kerak. Til birligi xalqning mentaliteti, dunyoqarashi, urf-odatlar, milliy qadriyatlar bilan bog'liq bo'lishi lozim. Masalan, "to'y", "osh", "choy" leksemalari o'zbek xalqining qadriyati, urfi bilan bog'liq.

2) Milliy xususiyatga ega bo'lishi kerak. Leksema yoki frazema umuminsoniy emas, balki ma'lum bir millatga xos bo'lishi kerak. Masalan, "sunnat to'yi", "to'yona" kabi so'zlar faqat o'zbek xalqiga xoslikni bildiradi.

3) Madaniy yoki tarixiy kontekstda ishlatilgan bo'lishi kerak. So'z yoki ibora muayyan tarixiy yoki madaniy kontekstdan joy olgan bo'lishi lozim. Masalan, "yosti to'shamoq" iborasi o'zbeklarda kelinni kutib olish urf-odatiga oid.

4) Lingvosemantik chuqurlikka ega bo'lishi kerak. Leksema oddiy semadangina iborat bo'lmasligi, balki ko'p qavatli (chuqur), ramziy, obrazli ma'noga ega bo'lishi kerak. Masalan, "yuzim yorug' bo'lsin", "nomus" kabi frazema va so'zlarda ijtimoiy bosim, madaniy me'yorlar mujassam.

5) Barqaror ishlatilish, ya'ni uzviylik. Leksema xalq orasida barqaror, avloddan avlodga o'tgan, madaniy kodeks sifatida tan olingan bo'lishi lozim. Masalan, "qozon" leksemasi o'zbek xalqida ancha yillardan beri qo'llanilib, hatto ramziylashtirish

darajasigacha brogan. “Qozonga yaqinlash qorasi yuqadi”, “qozoni qaynamoq”, “bir qozonda qaynamoq”, “qozoni to’kilmoq” kabi frazemalar bunga yaqqol isbot desak adashmaymiz.

Dastlab “Eski maktab” asaridagi frazemalarni tahlilga solamiz.

1. Luqma tashlamoq

Domla agar yanglishib bir bolaning o’rniga ikkinchi bir Bolani chaqirsa, xalfa yanglishni tuzatar, “u emas, bu” deb domlaga luqma tashlar edi. [13, 1982:12]

O’zbek tilida *luqma tashlamoq* iborasi mavjud. Bu yerdagi “luqma” leksemasini biz madaniy birlik deb olamiz. “Luqma” so’zining ma’nosiga to’xtalamiz.

Luqma so’zi asli bizga arab tilidan o’zlashgan so’z bo’lib, bir burda, yutum, biro sham degan ma’nolarni ifodalaydi.

O’zining javob berishi lozim bo’lganligini sezgan Usmon polvon og’zidagi luqmani tez-tez yutib oladi. (A. Qodiriy, “Obid ketmon”)

Shuningdek, umuman oz miqdorda degan semasi ham mavjud:

Elmurod qayoqqa qaramsin, ivqatni ko’rar, hidi dimog’iga urar, lekin ulardan o’ziga qachon bir luqma tegishini bilmasdi.

Umuman, luqma so’zi kengaygan madaniy birlik hisoblanmasada, u o’zbek xalqining halollikka e’tibori kuchli ekanligidan belgi beradi.

Mehnatkash xalq, dunyoda eng azizdir, Luqmayi halol, peshona ter lazizdir. (Habibiy)

Ammo ayrim o’rinlarda gap orasiga javob, so’roq, izoh tariqasida boshqa kishi tomonidan qo’shiladigan gap, so’z ma’nosida ham qo’llaniladi. “Eski maktab” asarida aynan shu ma’noda qo’llanilgan. Buni Abdulla Qahhor ijodida ham ko’rsak bo’ladi.

– Sen gapirganda, Sherbek jim o’tirgan edi!– kimdir luqma tashladi.

2. Tuya ko’rdingmi yo’q

– Bundan so’ng men hech ham chaqmayman, sizlar ham shunday qilinglar, “tuya ko’rdingmi yo’q”, – dedi xalfa ... [13, 1982:70]

Bu kontekstda “tuya” leksemasi sirlik, yashirinlik ramzida kelyapti. Bu frazema hozirgacha ishlatiladi. Bu yerdagi madaniy birlik deb biz tuya so’zini ola olamiz. Asosan, tuya arab xalqida ramziylikka ko’proq ega va shuning uchun ham biz “tuya” deganimizda arab cho’llari, arab xalqi esimizga tushadi. Tuya ko’pincha chidamlilik, chidamlilik va omon qolish bilan bog’liq. Suvsiz cho’llarda uzoq masofani bosib o’ta olishi bilan mashhur tuya o’z-o’zini ta’minlash va qat’iyatni anglatadi. Uning yog’ to’playdigan tepalari ichki kuch va resurslarning rezervuari sifatida ko’riladi, bu esa tuyaga qiyin va bepust landshaftlarda chidashga imkon beradi. Tuya, shuningdek, sabr-toqat va barqarorlikni ifodalaydi, uning sekin, ammo tinimsiz rivojlanishini aks ettiradi. Tuya klassik afsonalar yoki afsonalarda muhim o’ringa ega bo’lmasa-da, u turli madaniy hikoyalar va diniy matnlarda muhim rol o’ynaydi. Islom an’alarida tuya ko’pincha sabr va sadoqat ramzi bo’lgan muqaddas hayvon sifatida ko’riladi. Qur’on va hadislarda tilga olingan bo’lib, uning arab madaniyatidagi ahamiyatini aks ettiradi. Ba’zi Afrika va Yaqin Sharq folklorlarida tuya dono va kamtar jonot sifatida tasvirlangan, ko’pincha odamlarga axloqiy yo’lboshchi yoki yordamchi bo’lib xizmat qiladi. Uning noyob jismoniy xususiyatlari va moslashuvchanligi uni ko’plab cho’l madaniyatlarida omon qolish va topqirlik ramziga aylantirdi. O’zbek xalqida esa turli frazemalar tarkibida har xil ma’noda keladi.

Baqiroq tuyaning bori yaxshi deydilar. (I. Ahnedov, “Og’ir operatsiya”)

Bu yerdagi kontekstda tuya rahbar, yoshi ulug’ kishi ma’nosida kelgan.

Tuya go’shti yegan teatr. (Mushtum)

Biror narsaning bitishi, amalga oshishi juda sudralishi, cho'zilishini qayd etuvchi ibora. Bu yerda tuya sekinlik ma'nosida qo'llangan. Aytib o'tish joiz, tuya o'zbek xalqining emas, balki arablar xalqining madaniy birligi sanaladi. O'zbek tilida esa uning ramziy ma'nolari aks etadi va frazemalarda turlicha qo'llaniladi.

Men tuya emasmanki, hammomni orzu qilsam. (T. Malik, "Ajab dunyo")

Bu suvdan bizga tuyaning dumi yerga yetganida tegadi, – dedi. (M. Ismoil, "Farg'ona tong otguncha")

Endi Sadridin Ayniyning "Odina" asaridagi frazemalardagi madaniy birliklarni tahlil qilamiz.

1. To'zim xirmonini yel yo'liga qo'ymoq

2. Umid o'chog'iga suv qo'ymoq

Bu o'ylashlar Oyshabibining to'zim xirmonini yel yo'liga qo'yar, uning umid o'chog'iga suv qo'yar edi. [12, 2019:21]

Bu ikki ibora badiiy ifoda (frazeologik birikma) sifatida ishlatilgan bo'lib, majoziy ma'noga ega. Ular Oyshabibining ruhiy holatini, ichki kechinmalarini obrazli tarzda ifodalashda xizmat qilgan.

1. "To'zim xirmonini yel yo'liga qo'ymoq"

Bu ibora sabr-toqat, chidam degan ma'noni bildiruvchi "to'zim xirmoni" obrazidan foydalangan. "Yel yo'liga qo'yish" esa uni shamol uchirib yuborishi, ya'ni yo'q bo'lishi, barbod bo'lishi ma'nosini anglatadi. Sabri-toqati barbod bo'lishi, chiday olmay qolish holatini bildiradi. Oyshabibining ichki ruhiy ezilish holatini tasvirlashda ishlatilgan. Bu ibora uni juda og'ir kechinmalar bosib ketgani, endi sabr qilolmas darajaga kelganini ifodalaydi. Bu frazemada "Xirmon" so'zi madaniy birlik sifatida ishtirok etgan. "Xirmon" deganda o'zbek xalqining mehnati va turmush tarzi ko'z oldimizda namoyon bo'ladi. "O'zbek tilining izohli lug'atida "xirmon" so'ziga shunday izoh beriladi:

1. Xirmon–hosilni to'plash uchun ajratilgan joy.

2. Shunday joyga (xirmonga) yanchish, tozalash yoki quritish uchun keltirilgan mahsulot

3. Ko'pmiqdorda uyib tashlangan narsalar

Umuman olganda, bu leksema ostida "mehnatkashlik" semasi yotibdi.

2. "Umid o'chog'iga suv qo'ymoq"

"Umid o'chog'i" – bu inson qalbidagi orzu-umidlarning manbai. "Suv qo'yish" esa uni o'chirib yuborish, yo'qotish deganidir. Umidning butunlay so'nishi, yo'q bo'lishi, tushkunlikka tushish holatini bildiradi. Oyshabibining orzu-umidlari puchga chiqqani, hayotdan umidini uzganini obrazli tarzda ko'rsatadi. "O'choq" deganimizda beixtiyor o'zbek xalqi ko'z oldimizga keladi. Bu leksema o'zbek tilida juda ham turli ma'nolarda qo'llaniladi va xalq orasida "tirikchilik manbayi" sifatida lisonda muhrlangan. Shuningdek, biror narsa paydo bo'ladigan, amalga oshadigan, tarqaladigan joy ma'nosida hamishlatiladi. Bilim o'chog'i, tarbiya o'chog'i, madaniyat o'chog'i kabi birikmalar shunga misol bo'ladi. "O'choq" so'zi o'zbek tilida juda boy majoziy va badiiy ma'nolarga ega. Bu so'z ishtirok etgan ko'plab iboralar mavjud bo'lib, ular ko'pincha oila, baraka, hayot, vatan, iliqlik, mustahkamlik kabi tushunchalar bilan bog'liq.

1. O'choq tutatmoq

– Oila qurmoq, uy-ro'zg'orli bo'lmoq.

"Yigit bo'lding, endi o'choq tutadigan payting keldi."

2. O'choq boshida

– Uyda, oilada, yaqinlar davrasida.

“Bayramni o‘choq boshida nishonladik.”

3. O‘choq o‘chmasin

– Oila doim bardavom bo‘lsin, baraka ketmasin degan duo ma’nosida.

“Xonadoningizdan o‘choq o‘chmasin!”

4. O‘choq ko‘chirmoq

– Boshqa joyga ko‘chib o‘rnashmoq, yashash joyini o‘zgartirmoq.

“Ular qishloqdan shahar tomonga o‘choq ko‘chiribdi.”

5. O‘choqqa suv quyish

– Umidni o‘chirmoq, yashashni, hayotni barbod etmoq.

6. O‘choq barakasi

– Uy-ro‘zg‘orning tinchligi va farovonligi.

“Ayol kishi – o‘choq barakasi.”

7. O‘choqni isitmoq / O‘choq yoqmoq

– Uyda hayot boshlamoq, iliqlik keltirmoq, oila tinchligini ta’minlamoq.

“Kelin o‘choqni yoqdi, xonadon nurga to‘ldi.”

3. Qozon qaynamoq

Agar bola-chaqasini ko‘chiruviga ruxsat berilsa, hrch bir faqir qaytib bu yerga kelmas, hokim, qozi, rais va shularning kosaleslari bo‘lgan arbob, oqsoqol, imom va boshqalarning cho‘ntaklari bo‘sh, kissalari quruq, qozonlari qaynamay qolar edi. (12, 2019: 70]

Lingvokulturologik birlik sifatida “qozon” leksemasini olamiz. Negaki, bu so‘zda o‘zbek xalqining hayoti, turmush tarzi, ijtimoiy madaniyati bilinib turadi. Odatda, uy hayoti, tiriklik, baraka, faollik semalarida keladi. Shuningdek, bu leksema turli ibora va maqollar tarkibida ham faol qo‘llaniladi.

Qozon o‘rtasida qolmoq

– Murakkab, tang vaziyatda qolish; har ikki tomondan bosim ostida qolish, “Ikkala o‘rtog‘i urushib qoldi, u esa qozon o‘rtasida qoldi.”

Qozonning tagi kuygan

– Ishning asl mohiyati buzilgan, ichki muammo bor, yuzaki qaraganda yaxshi ko‘rinsa ham, ich-ichida muammo yashiringan.

Qozonchi qozon tagida qolar

– O‘z mehnatidan foyda ko‘ra olmaslik, kasbining mevasidan bebahra qolish. “U butun umr boshqalarga xizmat qildi, lekin o‘zi qozon tagida qoldi.”

Qozonni birga qaynatmoq

– Hamkorlikda ishlamoq, birga yashamoq, muammolarni birga yengmoq, hayotni birga kechirish.

Qozonni ag‘darib yubormoq

– Ishni butkul buzmoq, mojaroli vaziyat yaratmoq, barqarorlikni buzish, tinchlikni yo‘qotish.

Qozonni ko‘tarib yubormoq

– Yashirin gapni fosh qilmoq, sirni ochmoq. “U bir so‘z bilan butun qozonni ko‘tarib yubordi.”

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Sadriddin Ayniyning asarlarida (maqolada ikkita asari tahlilga tortilgan) frazemalar faol, ammo ularning ayrimlaridagina lingvokulturologik birliklardan foydalanilga va o‘sha birliklar qatnashgan frazemalargina

tahlil qilindi. Maqoladan asl maqsad ham frazemalardagi madaniy birliklarni tahlilga tortish edi. Shuningdek, Sadridin Ayniy qo'llagan ayrim iboralar bugungi kunda deyarli faol emas. Masalan:

1. To'zim xirmonini yel yo'liga qo'ymoq

2. Umid o'chog'iga suv qo'ymoq

Bu iboralar hozirgikunda tildakam ishlatiladi, biroq o'zida madaniy birliklarni saqlagani hamda xalqning hayotini ochib bergani uchun ham asarlarda qo'llaniladi.

Ammo Sadridin Ayniy ishlatgan boshqa frazemalar bugungi kunda ham faol. Masalan:

1. Tuya ko'rdingmi yo'q

2. Luqma tashlamoq

3. Qozon qaynamoq

Bu frazemalar hozirgi zamonda ham xalq orasida ishlatiladi va asarlarda ham faol.

Shuni aytib o'tishimiz mumkinki, madaniy birlik xalqning hayotini, madaniyatini, urf-odatini saqlab keladi. Agar u ibora tarkibida kelsa ham o'sha ibora, ham o'sha qo'llanilgan lingvokulturologik birlik yana-da barqarorlashadi. Sababi, frazemalar ham huddi madaniy birliklardek millatning hayotini, dunyoqarashini o'zida saqlaydi va turg'un holatda keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. M. Saidova, U. Qo'ziyev. Lingvokulturologiya. – Namangan. 2017.
2. SH. Rahmatullayev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: "UNIVERSITET", 2006.
3. R. Sayfullaeva, B. Mengliyev, G. Boqieva, M. Qurbonova, Z. Yunusova, M. Abuzalova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T. 2009.
4. F. Begmatov, A. Hojiyev, T. Mirzayev. O'zbek tilining izohli lug'ati. – T.: "G'afur G'ulom", 2023.
5. Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. – T.: O'qituvchi, 1974.
6. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. – T.: Universitet, 2000.
7. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli lug'ati. – T.: O'qituvchi, 1978.
8. <https://izoh.uz/word/>
9. <https://www.oriens.uz/uz/conference/article/arab-tilida-tuya-sozining-sinonimlari/>
10. https://uz.wikipedia.org/wiki/Tuya_Hidaa
11. <https://savodxon.uz/izoh?tuya>
12. Sadridin Ayniy. Odina. – Toshkent. 2019.
13. Sadridin Ayniy. Eski Maktab. – Toshkent. 1982.